

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**13.00.02 – TA‘LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI  
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH  
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

**DASTUR VA BAHOLASH MEZONI**

**Samarqand – 2023**

## **TUZUVCHILAR:**

M.X.Lutfillayev

SamDU, Kompyuter ilmlari va texnologiyalari fanlari kafedrasini professori, pedagogika fanlari doktori.

X.Nazarov

SamDU, Boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

M.Nuriddinova

SamDU, Boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasini dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.

M.Hazratqulov

SamDU, Boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

## **TAQRIZCHI:**

O.Eshniyozov

SamDU, Boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasini mudiri, fizika-matematika fanlari nomzodi.

Dastur Boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasining 2023-yil \_\_\_-sentabrdagi № \_\_\_son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

## **KIRISH**

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", – degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz.

Birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va kollej, texnikumlar hamda oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz.

Hozirgi davrda metodika fani pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, umumiy kasb tayyorgarligikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Metodika fanlaridan ma'lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishlari lozim.

Metodika fani talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishini aniqlaydi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi.

Bunda maorif va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta'lim amaliyoti, shuningdek, ta'limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta'limotlarni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan.

## **“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” fanining maqsad va vazifalari:**

- Talabgorlarning hozirgi zamon metodika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish;
- pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish;
- pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish;
- “Ta’limning metodik qonuniyatlari hamda tamoyillari”ga mos holda tegishli qarorlar qabul qilish;
- Hozirgi zamon ta’lim (pedagogik va axborot) texnologiyalarini bilish hamda ularni amaliyotda qo‘llay olishdan iboratdir.

## **“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” fanidan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar**

“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” o‘quv fanini o‘rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur:

- ta’lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g‘oyalaridan foydalanilgan holda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg‘un holda o‘tkazish;
- pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o‘rta davrni va istiqbolni ko‘zlab maqsad, vazifalarni belgilash;
- amaliyotda o‘qitish hamda ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo‘llash;
- amaliyotda o‘qitish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo‘llash, ma’lum vaziyatlarda ulardan to‘g‘ri foydalana olish;
- ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari shuningdek, Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish;
- o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni to‘g‘ri bajarilishini tashkil etish;
- shaxs faoliyati va xulqini rag‘batlantirib borish;
- pedagogik vaziyatlar, ta’lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o‘rganish; o‘zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash;
- o‘z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fanidagi yutuqlar, ilg‘or tajribalardan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish, pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo‘l qo‘ymay, ishga ijobiy, tolerantlilik va improvizatsiya munosabatni namoyon etish;

– guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta'lim, otaonalar, mahalla, jamoatchilik bilan o'z-o'zini boshqarishni tashkil etish.

Talabgor "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)" fanini o'rganish davomida zamonaviy ta'lim texnologiyasi kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur.

### **O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida Qonun asosida metodika fani va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida**

– Davlat va jamiyat-davlat va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiradi hamda fuqarolarning o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim turlarini olish huquqini kafolatlaydi;

– uzluksiz ta'lim va uning faoliyat ko'rsatish prinsiplari ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, har tomonlama komil insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash;

– uzluksiz ta'lim tizimi va turlari; maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim;

– fan-tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash sohasi sifatida;

– ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida.

O'qituvchi-murabbiyning o'ziga xos fazilatlari ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchimurabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy 7 bilimlari va ko'nikmalari. Pedagog iste'dodi va qobiliyati. O'qituvchi-murabbiyning pedagoglik axloq-odobi va nazokati, uning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.

**1. Metodika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik tadqiqot metodlari.** Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalar, rivojlanish. Pedagogika fanining tuzilishi.

Pedagogika fanining tarmoqlari. Pedagogikaning falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, meditsina, axborot texnologiyalari va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi. Pedagogika fanlari tizimi.

Asosiy pedagogik jarayonlar va ularning bir butunligi, pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari.

Metodika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi. Nazariy tadqiqot metodlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar. Amaliy tadqiqot metodlari ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba - sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.

**2. Pedagogik fanlarni o'qitish metodlari tasnifi.** Ta'lim metodlarining tasnifi asosiy didaktik maqsadlar bo'yicha tizimlashtiriladi Mualliflar tavsiya etilayotgan metodlarni quyidagi chizma bo'yicha qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar:

Materialni og'zaki bayon qilish (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasini). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish o'qituvchining tushuntirishini faol qabul qilish va puxta o'ylash evaziga amalga oshiriladi. Bilimlarni uzatish vositasi sifatida o'qituvchi nutqi muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilar faoliyatiga rahbarligi mavzuni qo'yish, rejani e'lon qilish, o'quvchilar faoliyatini boshharishdan iborat bo'ladi.

Suhbat metodi. O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni: ular e'tiboriga havola etilayotgan savolning mohiyatini anglash, mavjud bilimlar va tajribani safarbar qilish, savolga oid ob'ektlarni o'zaro taqqoslash, puxta o'ylash va savollarga to'g'ri javob tayyorlashdan iborat.

O'qituvchining rahbarligi: mavzuni qo'yish, savollarni ifodalash, berilgan javoblarni tuzatish, to'ldirish va umumlashtirish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Suhbat metodi yordamida bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar mavjud bilimlari va tajribalariga tayanadilar.

**3. Ta'lim jarayoni yagona tizim sifatida.** Ta'lim tamoyillari. Ta'lim jarayoni mohiyati. Ta'lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tasnifi.

Ta'lim - borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida. O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqasi. Sharq (al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sino) va G'arb mutafakkirlarining gneseologik g'oyalari (qarashlari) ta'lim jarayonining asosi sifatida. Ta'lim jarayonida o'zaro aloqa va bolalarning rivojlanishi. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi. O'quvchi-yoshlarning o'quv faoliyati va uning tuzilishi. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalar jarayoni hamda shaxsning rivojlanishi. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyachilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ularning psixologik va fiziologik asoslovi. Sharq mutafakkirlari ta'lim tamoyillari haqida.

**4. Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari.** Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta'lim turlari: illyustrativ (an'anaviy); problemali (muammoli); programmalashtirilgan ta'lim.

Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini 9 uyg'unlashtirish. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auksion, "mo'jizalar maydoni", "tergovni bilimdonlar olib boradi", bayt-barak va boshqalar.

Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiyalar.

O'quvchilarning uy vazifalari, uni tashkil etish mazmuni va metodlari. Ta'lim shakllarini rivojlantirish istiqboli.

O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to'garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar.

O'qituvchi faoliyatida, o'quv ishlari turli shakllarining o'zaro aloqadorligi.

**5. Ta'lim metodlari.** Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi. Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz. Chizmadan

anglanib turibdiki, ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta'lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida birbiridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funksiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta'lim metodi» atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi.

Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilmaxilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin: Har bir metod ma'lum ta'limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo'lishi mumkin. Universal ta'lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta'lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

**6. Fan metodlari** – ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi. Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir. Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. zero nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim.

**7. Xususiy ilmiy metodlar** – materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiygumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi



turli o'lichagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

**8. Umumilmiy tadqiqot metodlari** falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida 11 o'ziga xos «oraliq metodologiya» bo'lib xizmat qiladi. Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi. Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlaridir.

**9. Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari.** Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko'p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa sub'ektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Mazkur fanlarda oddiy (faktlar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi) kuzatish va ishtirokchilikka asoslangan ichdan turib (bunda tadqiqotchi ma'lum ijtimoiy muhitga qo'shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) kuzatish farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi-sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

**10. Darslik bilan ishlash.** Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib bosma matn xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi esa topshiriqni ifodalash, faoliyat maqsadini belgilash, o'quvchilarga darslik bilan ishlashning yangi usullarini o'rgatish, o'zlashtirilgan bilimlarning tushunilish va mustahkamlik darajasini tekshirish kabi ko'rinishlarda aks etadi. O'qituvchilarning kuzatuvchi (sinfda va sinfdan tashqari) (shu jumladan, O'quvchilarning o'quv predmetlari bo'yicha o'zlashtirish holati va hodisalarni kuzatib borib, turli fan o'qituvchilarining ko'rsatmalari bo'yicha ularni qismlarga taqsimlab har bir o'quvchining o'ziga xos, o'xshash va muhim jihatlarini aniqlashga yo'naltiriladi.

Bilimlarni o'zlashtirish manbai bo'lib muayyan predmet (yoki jarayon), tajriba, model, xaritalar xizmat qiladi. O'qituvchining rahbarligi kuzatish vazifasini belgilash, uni ma'lum shaxs zimmasiga yuklash, ob'ektni belgilash, umumiy rahbarlikni olib borish, qismlarga ajratish, asosiylarini aniqlash va umumlashtirishdan iboratdir.

**11. Laboratoriya ishlari.** Mazkur jarayonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi. O'quvchilar hodisalarni kechish jarayonini kuzatadilar va tahlil qiladilar.

Bilimlar manbai kuzatilayotgan hodisalar va ularning kechish jarayonidir. O'qituvchi vazifa mohiyatini ifodalaydi, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, umumiy jarayon va bosqichlarni kuzatish yo'llari hamda yakuniy xulosa chiqarishni o'rgatadi.

Mashqlar bilan ishlash (aqliy va faoliyatli mashqlar). O'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'ziga xosligi, nazariy asoslar o'zlashtirilgach, ayrim materiallardagi o'xshash harakatlarning ko'p bora takrorlanishi kuzatiladi.

Bilimlar manbai: o'zlashtirilgan bilimlar va xususiy tajriba sanaladi. O'qituvchi mashqni bajarish uchun joy hamda vaqtni belgilaydi, topshiriqni ifodalaydi, uni bajarish bosqichlarining borishini nazorat qiladi, boshharadi, shuningdek, yakuniy natijalarni tekshiradi.

**12. Evristik ta'lim metodlari.** Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga ma'lum qiladi, qolganini esa o'quvchilar topshiriqlarini yechish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, bilimlarni mustaqil egallashadi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda o'quvchilarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.

**13. Muammoli ta'lim metodlari.** Muammoli ta'lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'inishi hisoblanib, o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi, ya'ni, muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib yetilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo yechimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal yetadi. Agar uning oldida muammo

paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning yechimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

**14. Tadqiqotchilik o'qitish metodlari.** Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiqot jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA) MUTAXASSISLIGI BO'YICHA MALAKAVIY  
IMTIHON SAVOLLARI:**

1. Asosiy dars tiplari. O'qituvchining darsga tayyorlanish tizimi.
2. Davlat ta'lim standartlari. Ta'lim mazmunini qurish va tanlash me'yorlari.
3. Dars va uning xususiyatlari.
4. Darsning psixologik-pedagogik tahlili, o'quvchi shaxsi va guruh jamoasi.
5. Dasturiy pedagogik vositalar.
6. Yosh psixologiyasi. O'quvchilarga individual yondoshish psixologiyasi.
7. Ijodiy tajriba faoliyati. Ta'limni insonparvarlashtirish va ijtimoiylashtirish. Ta'lim mazmunining milliylik va baynalmilallik jihatlari.
8. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va ma'naviy tarbiya.
9. Laboratoriya va amaliy, seminar mashg'ulotlarning mazmuni, tuzilishi va ularni o'tkazish metodikasi.
10. Maktab va o'rta maxsus ta'lim fan kursining mantiqiydidaktik tahlili.
11. Maktab va o'rta maxsus ta'lim muassalari matematika kursining mazmuni.
12. Maktab va o'rta maxsus ta'lim fan kursining rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
13. Maktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy ta'lim va oliy ta'limdan tashqari, darsdan va sinfdan tashqari fan ta'limining maqsadlari.
14. Mantiqiy va obrazli tafakkurni rivojlantirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish.

15. Matematik-statistik metodlardan foydalanib olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish.
16. Metodikaning asosiy prinsiplari.
17. Metodikaning xususiy prinsiplari.
18. Moddiy - ma'naviy madaniyat elementlari va predmetlari ta'lim vositasi sifatida.
19. Mualliflik maktablari.
20. Mustaqil ta'lim (eksternat); kunduzgi va sirtqi, 15 masofaviy va boshqalar.
21. Pedagogik mahoratning komponentlari.
22. Pedagogik tajribalarni o'tkazish.
23. Pedagogik tajribani o'tkazishning asosiy bosqichlari: tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, ta'limiy, umumlashtiruvchi bosqichlari va boshqalar.
24. Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari.
25. Reproduktiv va muammoli-izlanuvchan o'qitish metodlari.
26. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda fan va kasb tanlashga yo'llash ishlarining mazmuni, uning tashkiliy-pedagogik, metodik va ilmiy asoslarini tahlil va tadqiq qilish, bu boradagi ilg'or g'oyalar, fikrlar, usul hamda uslublar.
27. Rivojlantiruvchi, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan moduli, muammoli, didaktik o'yinli, kontekstli, axborotli, tabaqalashtirilgan, multimediyali, o'z-o'zini rivojlantiruvchi texnologiyalar.
28. Sinf dars sistemasi.
29. Tabiat, jamiyat, inson, texnologiya va faoliyat usullari haqidagi bilimlar sistemasi.
30. Tashxislovchi, ogohlantiruvchi, joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari. Og'zaki, yozma va kompyuterli nazorat turlari.
31. Ta'lim va shaxs. Ta'lim va jamiyat, ta'lim, fan va madaniyat.
32. Ta'lim vositalari.
33. Ta'lim vositalarning ko'pxilligi va uni tizimlashlashtirish.
34. Ta'lim jarayonida o'zaro muomala va dialogni amalga oshirish muammolari. Kasbiy pedagogik faoliyatining mohiyati.
35. Ta'lim jarayonini tashkil etish modellari.
36. Ta'lim jarayonining mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, qarama-qarshiliklari va mantiqiy tuzilmasi.
37. Ta'lim ijtimoiy madaniyat fenomeni sifatida.
38. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Asosiy didaktik nazariyalar: turli ta'lim sistemalarida shaxsni rivojlantirish nazariyalari.
39. Ta'lim mazmuni va uning ilmiy asoslari.

40. Ta'lim mazmunini me'yorlovchi normativ hujjatlar. Ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodlari.

41. Ta'lim mazmunini didaktik vositalar orqali 16 modellashtirish.

42. Ta'lim maqsadlari va taksonomiyalari, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi; o'quv faoliyati nazariyasi va uning sub'ekti; mazmunli umumlashtirish nazariyasi; aqliy hatti-harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.

43. Ta'lim muassasalarining tiplari.

44. Ta'lim nazariyasi va metodlari. Metod haqida tushuncha va uning tasnifi.

45. Ta'lim olish jarayonining psixologik mohiyati va tuzilishi. O'zlashtirish jarayonining psixologiyasi.

46. Ta'lim texnologiyalari oldindan qo'yilgan tashxislanuvchi aniq maqsadlar va etalon asosida ta'lim jarayoni oldindan loyihalashtirish va kutilayotgan natijani kafolatlovchi tartiblangan, tizimlashtirilgan hatti-harakatlar, amallar va muammolar majmuasi sifatida.

47. Ta'lim umuminsoniy ijtimoiy tajribani egallash vositasi. Bilish nazariyasi ta'lim jarayonining metodologik asosi ekanligi.

48. Ta'limda avdiovizual va kompyuter vositalari.

49. Ta'limda innovatsion jarayonlar.

50. Ta'limda "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini amalga oshirish muammolari. Ta'lim va o'quvchilar o'quv imkoniyatlarining o'zaro mutanosibligi.

51. Ta'limni va mustaqil ta'limni amalga oshirish muammolari.

52. Ta'limning ikki tomonlama va shaxsga yo'naltirilgan harakatlari. O'qitish va o'qish jarayonining yagonaligi.

53. Ta'limning maorifiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari. Ta'lim jarayonining tuzilishi maqsadlari va natijalari.

54. Ta'limning og'zaki metodlari, o'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.

55. Ta'limning psixologik qonuniyatlari va amalga oshirish mexanizmlari.

56. Ta'limning turli: frontal, jamoaviy, guruhli, individual shakllarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zaro aloqadorligi.

57. Telekommunikatsion o'quv vositalari.

58. Til tajribasini hisobga olish va og'zaki nutqning 17 ilgarilashi prinsiplari.

59. To'garak, fakultativ mashg'ulotlari va olimpiadalar tashkil qilish.

60. Tushuntirish–illyustratsiyalash, muammoli, dasturlashtirilgan va kompyuterli ta'limni amalga oshirish nazariyalari.

61. O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qaroridan pedagogika sohasini rivojlantirishga oid vaziflarning tasnifi.

62. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi “ 2022 -2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati.

63. Uzluksiz ta‘limning turli bosqichlari uchun o‘quv-metodik adabiyotlar majmuasini yaratishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

64. O‘qitish metodlari va ularni guruhlantirishning nazariy va metodologik asoslari.

65. O‘qitish natijasini baholash psixologiyasi.

66. O‘qitishda o‘quvchini rag‘batlantirish metodlari.

67. O‘qitishni va uning natijalarini nazorat qilish metodlari.

68. O‘qitishni dialogli, guruhli va ommaviy (frontal) tashkil etish shakllari.

69. O‘qitishni tashkil etishning boshqa shakllari: praktikumlar, seminarlar va fakultativlar.

70. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini, o‘qitish natijalarini baholashda xolislik va “formalizm”ga yo‘l qo‘ymaslik shartsharoitlari. Psixologik- pedagogik diagnostikaning asosiy muammolari.

71. O‘qituvchi rahbar va tarbiyachi sifatida.

72. O‘qituvchi ta‘lim jarayonining sub’ekti ekanligi.

73. O‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakalarini tekshirish va baholash: nazorat ishlari, mustaqil ishlar, uy vazifalari, test sinovlari.

74. O‘quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish yo‘llari.

75. O‘quvchilar o‘quv faoliyatining motivatsiyasi.

76. O‘quvchilarning uy vazifasi bajarishlarini tashkil etish muammolari.

77. O‘lchash. Mantiqiy metodlar: taqqoslash va analogiya, umumlashtirish, abstraksiyalash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, analiz va sintez.

78. Umummadaniyatni va tajribani egallash va saqlashni ta‘minlovchi intellektual va amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi.

79. Fan bo‘yicha davlat ta‘lim standarti talablari asosida ta‘lim muassasalari uchun o‘quv-metodik majmualarni takomillashtirishning ilmiy- pedagogik asoslari.

80. Fan bo‘yicha laboratoriya, amaliy va seminar mashg‘ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta‘lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni.

81. Fan bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish hamda amaliy-metodik bilimlarini uzluksiz takomillashtirib borish muammolari.

82. Fan ta‘limida didaktik tamoyillarni amalga oshirish.

83. Fan o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni o‘tkazishning o‘rni, ahamiyati va asosiy vazifalari.

84. Fan xonasi. Fan bo‘yicha sinfdan tashqari ishlar va ularning asosiy funksiyalari. Fanning asosiy ko‘rinishlari va tasnifi.

- 85.Fanda uzviylik va uzluksizlik masalalari.
- 86.Fanni o‘qitish metodikasining predmeti.
- 87.Fanni o‘qitish metodikasining tadqiqot usullari va ularning nazariy hamda metodologik asoslari.
- 88.Fanni o‘qitish metodikasining tarkibiy qismlari.
- 89.Fanni o‘qitishda asosiy vositalar: darsliklar, didaktik va metodik qo‘llanmalar, jadvallar, modellar, sxemalar, kompyuter va boshqalar.
- 90.Fanni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan uzviy foydalanish.
- 91.Fanni o‘qitishda barkamol shaxsni voyaga yetkazish muammolari.
- 92.Fanni o‘qitishda o‘quv munozaralari va Keys texnologiyasidan foydalanish orqali ularda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- 93.Fanni o‘qitishda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni voyaga yetkazish yo‘llari.
- 94.Fanni o‘qitishda o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini tarkib toptirish.
- 95.Fanni o‘qitishning maxsus prinsiplari. Didaktik prinsiplarning fanni o‘qitish metodikasiga tatbiq etish xususiyatlari.
- 96.Fanni o‘qitishning metodlari va shakllari. Ularning tasnifi. Umumdidaktik va xususiy predmetli o‘qitish metodlarining o‘zaro aloqadorligi.
- 97.Fanni o‘qitishda psixologik prinsiplarining mohiyati.
- 98.Fanni o‘qitishning tashkiliy shakllari.
- 99.Fanni o‘qitishning empirik metodlari: kuzatish, tajriba, o‘lchash.
- 100.Oliy ta’limning magistratura bosqichida magistrning o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan majburiy ta’lim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. // Xalq so‘zi 2023-yil 1-may
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. // Xalq so‘zi 2020-yil 24-sentabr.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – T.: Yangi-Yul poligraf servis, 2010. – 196 b.
4. Mirziyoyev S.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: Ўзбекистон, 2017. –488 b.
5. Mirziyoyev S.M. Erkin va farovon demokratik Ўзбекистон davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: Ўзбекистон, 2016. –56 b.
6. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: qiysiy ta’lim. –T.: Adabiyot va san’at, 2001. –288 b.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston e’hud axloq. - T.: O‘qituvchi 1993.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. T.: Xalq merosi nashriyati. 1993.
9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. -T.: Xalq merosi, 1993.
10. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan e’dgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-tom. -T.: Fan,1998.
11. Aliшер Navoiy. Ma’bub ul-kuлуб. Asarlar. U’n besh tomlik. 13-tom. -T.: Adabiyot va san’at, 1996.
12. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. /Odob durdonalari/. -T.: Ўзбекистон, 1990.
13. Ibragimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. –T., “Sahhof” 2023y. 416 b.
14. K.Xoshimov, S.Nishonova. Metodika fani. II- qism. Darslik. Aliшер Navoiy nomiдаги Ўзбекистон Milliy kutubxonasi nashriyati. T., 2005.
15. Kaykovus. Qobusnoma. T.: “Meroc”, 1992.
16. Qur’oni Karim. -T.: O‘qituvchi, 1993.
17. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmac kuc. –T.: Ma’naviyat, 2008. –176 b.
18. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. -T.: O‘qituvchi, 2001
19. O.Xasanboeva, J.Xasanboev, X.Hamidov. Metodika fani. O‘quv qullanma T., “O‘qituvchi”1997.
20. Pedagogika (prof. A.K.Minarovning umumiy ta’limi ostida). - T.: O‘qituvchi, 1996.
21. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik./ M.X.Toxtahodjaevning umumiy ta’limi ostida. “Iqtisod-mo’laja”, 2007.-380 b.
22. Podlasyi I.P. Pedagogika 1-2 t. -M.: Vlados, 1999.
23. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Mo’laja, 2003.



24. Ўзбек педагогикаси анталогияси 1-2 т. (тузувчилар К.Ҳошимов, С.Очил. Ўқитувчи, 1995-2000).

25. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. -Т.: Фан, 2000.

26. Хасанбоев Ж.Й. ва бошқалар. Педагогика. Ўқув қўлланма.- Т., “Фан”.2006.

27. Хасанбоева О., Хасанбоев Ж.,Ҳамидов Ҳ. Metodika fani. –Т.: Ғофур Гулом. 2005.

28. Ж.Хасанбоев, Х.Туракулов, М.Хайдаров, О.Хасанбоева, Н.Усмонов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Fan va texnologiya”, 2009, 672 бет.

29. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (сўзбоши муаллифи Б.Тухлиев) – Т.: Юлдузча, 1990.

30. Самарский А.А., Михайлов А.П. Математическое моделирование: Идеи. Методы. Примеры. –М.: Наука. Физматлит. 1997. –320 с.

31. Ивченко Г.И., Медведев Ю.И. Введение в математическую статистику: Учебник. М.: Издательство ЛКИ, 2010. —600 с.

32. Абдушукуров А.А. Эҳтимоллар назарияси ва математик статистика. Университет, 2010 й., 169 б.

#### **Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

4. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz)

5. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

7. [www.istedod.uz](http://www.istedod.uz)

8. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA  
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS  
FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI  
BAHOLASH MEZONI**

<b>Sinov topshirish shakli</b>	Yozma
<b>Ajratilgan vaqt</b>	120 daqiqa
<b>Savollar soni</b>	5
<b>Har bir savol uchun belgilangan ball</b>	20
<b>Maksimal ball</b>	100